

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Odob-axloq komissiyasining yig‘ilish
Bayoni 10**

2025-yil 30-dekabr

Toshkent shahar

Komissiya raisi:	Boshqaruv Raisi maslahatchisi A.Islamov
Komissiya raisi o‘rinbosari:	Ichki xavfsizlik departamenti direktori S.Sergiyenko
Komissiya a‘zolari:	Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti direktori v.v.b. V.Yuliy Yuridik departamenti direktori v.v.b. U.Aminova Komplayens-nazorat departamenti direktori A.Yoqubjonov Risk-menejment departamenti direktori o‘rinbosari D.Xujayev Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati menejeri Sh.Ismoilov
Komissiya kotibi:	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati menejeri A.Kurbanov

KUN TARTIBI:

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlari xizmat (mehnat) faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi
holatlarini doimiy monitoring qilish davomida aniqlangan
holatlarni ko‘rib chiqish

Komissiya Raisi A.Islamov tomonidan yig‘ilish ochiq deb e‘lon qilindi hamda kun tartibidagi masala bo‘yicha axborot berish uchun so‘z Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilovga berildi.

Sh.Ismoilov komissiya a‘zolariga:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 632, 29.01.2025-y.) talablariga binoan bank (ishga qabul qilingan, lavozimi o‘zgargan va yillik) xodimlari tomonidan taqdim etilgan deklaratsiyalar qo‘shimcha o‘rganish va doimiy monitoring qilinganida, jami **25 ta** shundan, Bosh bank xodimlari o‘rtasida **14 ta** holatda hamda hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlari o‘rtasida **10 ta** holatda

“Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi” va **1 ta** holatda “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi” aniqlanganligini ma’lum qildi.

Xususan, Xorazm bank xizmatlari ofisida aniqlangan **1 ta** “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi” holati (Xorazm BXO boshqaruvchi o‘rinbosari Davlat dasturlari bo‘yicha **J.Kurambayev** va uning qayniukasi Xorazm BXO Biznes menejerlar guruhi Katta biznes menejeri **A.Ablayev**) bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizomning 8-bobi (manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari) 21-bandi talablariga binoan o‘ziga nisbatan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bo‘ysunuvidagi xodimni manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish (rotatsiya qilish) yo‘li bilan bartaraf etish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Shuningdek, Bosh bank xodimlarida aniqlangan **14 ta** holatdagi hamda hududiy tarkibiy bo‘linma (BXO va BXM) xodimlarida aniqlangan **10 ta** holatdagi “Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi” bo‘yicha xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar hamda o‘quv-trening mashg‘ulotlari o‘tkazish lozimligi ta’kidlandi.

Komissiya a’zolari taqdim etilgan ma’lumot hamda bildirilgan takliflarni muhokama qilib,

QAROR QILDI:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilovning kun tartibi bo‘yicha bergan axboroti ma’ulmot uchun qabul qilinsin.

2. Xodimlar tomonidan taqdim etilgan deklaratsiyalarda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari to‘g‘risidagi ma’ulmotlarni ochiqklamagan yoki yolg‘on ma’lumot bergan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi ko‘rilishi yuzasidan qat’iy ogohlantirilsin.

3. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan:

- Xorazm bank xizmatlari ofisida aniqlangan **1 ta** “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi” holatlari yuzasidan Odob-axloq komissiyasining manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish bo‘yicha ish beruvchiga kiritiladigan takliflari asosida belgilab beriladigan topshiriq (masalan, rotatsiya qilish va boshqa chora)lar ijrosi ta’minlash;

- Bosh bank va hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida aniqlangan **24 ta** “Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi” holatlari bo‘yicha har bir xodim bilan o‘tkazilgan profilaktik tushuntirishlar yuzasidan rasmiylashtirilgan bayonnomalarni Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmatiga taqdim etilishi ta’minlansin.

4. Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari va hududiy tarmoqlari rahbarlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymagan holda mehnat faoliyatini yuritish, bunda rahbar sifatida shaxsiy namuna ko‘rsatish hamda qo‘l ostidagi xodimlarning ushbu yo‘nalishdagi qonunchilik va ichki qoidalar talablariga qat’iy rioya qilishlari ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

**Boshqaruv Raisi
maslahatchisi:**



A.Islamov

№ 649

2025 yil «30» «dekabr»

kelishuvchilar: A.Kurbanov, U.Aminova, Sh.Ismoilov, S.Sergiyenko, A.Yoqubjonov, D.Xujayev, Y.Vershilo

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=vH32xA69&id=2b32ac9d-42e0-47b3-a74f-8df3bf26ce37>